

## HAYDOVCHINING MADANIYATI VA ETIKASI

*Toshkent viloyati Piskent tumani  
1-son Kasb Hunar Maktabi  
"Mahsus fanlar" kafedrasida  
Katta o'qituvchisi  
Usmanova Navro'za Zokirjon qizi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada haydovchining madaniyati va etikasi, haydovchining zarur hujjatlari va haydovchining umumiy majburiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ruxsatnoma, guvoohnoma, yagona tartib, tezliklar, harakat marshruti.

## КУЛЬТУРА И ЭТИКА ВОДИТЕЛЯ

Пискентский район Ташкентской области  
Профессионально-техническое училище № 1  
Кафедра «Специальных наук».  
Старший преподаватель  
Усманова — дочь Навроза Закирджана.

**Аннотация:** в данной статье представлена информация о культуре и этике водителя, необходимых документах водителя и общих обязанностях водителя.

**Ключевые слова:** разрешение, сертификат, единая процедура, скорости, маршрут движения.

## DRIVER CULTURE AND ETHICS

Piskent district of Tashkent region  
Vocational School No. 1  
Department of Special Sciences.  
Senior Lecturer  
Usmanova is the daughter of Navroz Zakirdzhan.

**Abstract:** This article provides information about driver culture and ethics, required driver documents, and general driver responsibilities.

**Key words:** permit, certificate, unified procedure, speeds, route.

O`zbekiston Respublikasida yo`l harakatining yagona tartiblari. Respublikadagi yo`llarda transport vositalarining o`ng taraflama harakati.

- O`zbekiston Respublikasida yo`l harakatining yagona tartiblari. Respublikadagi yo`llarda transport vositalarining o`ng taraflama harakati.

- Avtomobil yo`llarida harakat tartibsiz ravishda vujudga keladi. Har bir haydovchi o`ziga qulay harakat tartibini tanlaydi hamda o`zi tanlagan harakat tartibining boshqa harakat katnashchilariga ta`siri bilan hisoblashmaydi. Shuningdek, turli rusumli avtomobillarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga ta`sir qilishi muqarrar. Yo`l harakatida avtomobillarning o`zaro ta`siri harakat miqdori qancha ko`p bo`lsa, shuncha orta boradi.

- *Yo`l harakatini tashkil etish* – transport vositalari oqimini maksimal darajada yo`lning geometrik o`lcham imkoniyatlaridan foydalanib, uning har xil bo`laklarida xavfsiz harakat tartibini va yuqori o`tkazish qobiliyatini ta`minlashga qaratilgan tadbirlar tizimidan iborat.

Yo`l harakatini tashkil etish tamoyillari transport oqimini to`g`ri yo`naltirishga, kerak hollarda ularni tezliklar bo`yicha guruhlariga ajratishga, har bir yo`l bo`lagi uchun ratsional tezliklarni belgilashga, haydovchilarga o`z vaqtida harakat marshruti va yo`l sharoiti to`g`risida axborot berishga qaratilgan.

- Yo`l harakatini tashkil etish tamoyillari transport oqimini to`g`ri yo`naltirishga, kerak hollarda ularni tezliklar bo`yicha guruhlariga ajratishga, har bir yo`l bo`lagi uchun ratsional tezliklarni belgilashga, haydovchilarga o`z vaqtida harakat marshruti va yo`l sharoiti to`g`risida axborot berishga qaratilgan.

- Avtomobil transportining ishini, haydovchi mehnatini, yo`ldagi transport vositalari va piyodalarning harakatini tashkil qilishni bir- biridan farqlash lozim. Birinchi ikki masala bilan asosan avtokorxonalar, keyingisi bilan esa yo`l xo`jaliklari, yo`l harakati xavfsizligi organlari va hokimiyat vakillari shug`ullanadilar.

- Yuqoridagilardan kelib chiqib, *yo`l harakatini tashkil qilishning asosiy maqsadi* deb har xil transport vositalarini yuqori tezlik bilan yo`lning turli bo`lagidan yilning har qanday ob-havo sharoitlarida xavfsiz o`tkazish tushuniladi. Harakatni tashkil etishning *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

transport vositalarining harakat tartibini belgilash va ta`minlash;

- transport vositalarining harakat tartibini belgilash va ta`minlash;
- avtomobillarning yuqori samaradorlik bilan ishlashini har qanday ob-havo sharoitida ta`minlash va eng yaxshi yo`l sharoitlarini vujudga keltirish;

- harakat xavfsizligini yo`lning har qanday bo`lagida va turli ob-havo sharoitlarida ta'minlash;
- atrof - muhitni bulg`atmaslik;
- transport vositalarining va yo`l inshootlarining tez ishdan chiqmasligini ta'minlash.
- Ma'lumki, har qanday faoliyatni amalgam oshirishda, uni to`g`ri tashkil qilishda biror narsaga ya'ni qandaydir qonuniyatlarga asoslanish, maqsadga erishishning yagona to`g`ri tashkil qilishda insoniyat tarixida juda ko`plab qoidalar ishlab chiqilgan va ular takomillashib brogan. Yo`l harakati qoidalari juda qadimga borib taqaladi. Yo`llarda birinchi transport vositalari – “izvoshlar” baul obo`lishi bilan ular uchun harakatlanish qoidalari ishlab chiqilgan.

Yo`l harakati qatnashchilariga qo`yiladigan talablar. Yo`l harakati qatnashchilarining vazifalari.

- Yo`l harakati qatnashchilariga qo`yiladigan talablar. Yo`l harakati qatnashchilarining vazifalari.

- Avtomagistral – 5.1. yo`l belgisi bilan belgilangan, har bir yo`nalishning qatnov qismlari yotiq chiziq bilan ajratilgan (u bo`lmaganda yo`l to`siqlari bilan) hamda boshqa yo`llar, tramvay vat emir yo`llari, piyoda va velosiped yo`laklari bilan bir sathda kesishmaydigan yo`l.

- Avtopoyezd – ulagich moslamalari bilan ulangan egarli shatakka oluvchi va yarim tirkama yoki yuk avtomobili va tirkama (tirkamalar)dan iborat transport vositasi tarkibi.

- Yo`l harakati xavfsizligi – yo`l harakati qatnashchilarining yo`l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo`l harakati holati.

- Velosiped – odam kuchi bilan harakatlantiriladigan (nogironlar aravachasidan tashqari) ikki yoki undan ortiq g`ildirakli transport vositasi.

Transport vosirasining egasi – transport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Transport vosirasining egasi – transport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Haydovchi – yo`llarda transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs. Boshqarishni o`rgatuvchi, ot aravani boshqarayotgan, hayvonlarni minib harakatlanayotgan yoki ularni yetaklab borayotgan, chorva mollari (poda)ni haydab borayotgan shahslar haydovchiga tenglashtiriladi.

Majburiy to'xtash – texnik nuqson, tashilayotgan yuk, haydovchi va yo'lovchining holati, yo'ldagi biror to'siq tufayli xavf yuzaga kelganda yohud ob-havo sharoitiga bog'liq holda transport vositasi harakatini to'xtatish.

Asosiy yo'l – tuproqli yo'lga nisbatan qattiq qo'lamali (asfalt va sement-betonli, tosh va shunga o'xshashlar yotqizilgan), kesishayotgan yoki tutashgan yo'lga nisbatan 2.1, 2.3.1, - 2.3.3 yoki 5.1 yo'l belgilari bilan belgilangan yohud yondosh hoduddan chiqadigan yo'lga nisbatan har qanday yo'l.

Ikkinchi darajali yo'lning bevosita chorrahaga tutash qismining qo'lamali bo'lishi uni asosiy yo'l bilan teng huquqli qilmaydi.

Ikkinchi darajali yo'lning bevosita chorrahaga tutash qismining qo'lamali bo'lishi uni asosiy yo'l bilan teng huquqli qilmaydi.

Arava – ot (yoki boshqa hayvonlar) ga qo'shib tortiladigan yoki odam mushak kuchi bilan harakatga keltiriladigan dvigatel bilan jihozlanmagan, yuk tashishga mo'ljallangan qurilma.

Yo'l – transportvositalari va piyodalarning harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan yer bo'lagi yohud sun'iy inshoot yuzasi. Yo'l avtomobil va shahar elektr transporti yo'llarini hamda trotuarlarni o'z ichiga oladi.

Yo'l - transport hodisasi – transport vositasining yo'lda harakatlanishi jarayonida ro'y bergan, fuqarolarning halok bo'lishiga yoki sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishi yohud boshqa moddiy zarar yetishiga sabab bo'lgan hodisa.

Haydovchining zaruriy hujjatlari. Haydovchining majburiyatlari. Yo'l transport hodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari.

Haydovchining zaruriy hujjatlari. Haydovchining majburiyatlari. Yo'l transport hodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari.

Mexanik transport vositasining haydovchisi quyidagilarni yonida olib yurishi va IIO hodimlari talab qilganda tekshirish uchun taqdim etishi shart:

Haydovchilik guvohnomasi va uning tallonini yoki transport vositasini vaqtinchalik boshqarish huquqini beruvchi tallonni, haydovchilik guvohnomasi belgilangan tartibda olib qo'yilgan bo'lsa, uning tallonini, haydovchilik guvohnomasi va uning talloni olib qo'yilgan hollarda vaqtinchalik ruxsatnomani; Vaqtinchalik boshqarish huquqini beruvchi talon yoki vaqtinchalik ruxsatnoma bilan transport vositasini boshqarishda haydovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni; 00Transport vositasi yoki tirkamani qayd qilish guvohnomasini, transport vositasining egasi

bo`lmagan hollarda esa umumiy egalik huquqini yoki tasarruf etish huquqini beruvchi, egalik qilishga va foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi hujjatni;

Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug`urta qilish bo`yicha sug`urta polisini;

Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug`urta qilish bo`yicha sug`urta polisini; Qonunchilikda ko`zda tutilgan hollarda yo`l varaqasi va tashilayotgan yukning hujjatlarini. Tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasiga, uning taloniga, vaqtinchalik ruxsatnomaga ega bo`lgan shaxs, o`ziga tegishli bo`lmagan transport vositasini, uning egasi yonida bo`lganida yohud tasarruf etish huquqini beruvchi yoki egalik qilishga, foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi hujjatlari bo`lgan shahs ishtirokidagina (ularning roziligi bilan) boshqarishi mumkin, agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug`urta qilish bo`yicha shartnoma ushbu transport vositasidan cheklanmagan shaxslarning foydalanishini hisobga olgan holda tuzilgan yoki transport vositasini boshqarayotgan shaxs sug`urta polisida ko`rsatilgan bo`lsa.

Konstruksiyasida xavfsizlik kamarlari nazarda tutilgan transport vositasi harakatlanib borayotgan havdovchi xavfsizlik kamarini taqib olishi shart.

Konstruksiyasida xavfsizlik kamarlari nazarda tutilgan transport vositasi harakatlanib borayotgan havdovchi xavfsizlik kamarini taqib olishi shart.

Quyidagi shaxslarga xavfsizlik kamarini taqmaslikka ruxsat beriladi:

Avtomobilning orqa o`rindig`idagi 12 yoshgacha bo`lgan bolalar ;

Transport vositasini o`quvchi boshqarayotgan vaqtda avtomototransport vositasini yoki shahar elektr transportini boshqarishni o`rgatuvchi amaliy mashg`ulotlar instruktori;

Homilador ayollar, salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan bemor yo`lovchilar;

Orqaga harakatni oshirayotgan haydovchilar;

Aholi punktlarida harakatlanishda – yo`nalishsiz taksi haydovchilari, taksining orqa o`rindig`idagi yo`lovchilar;

Aholi punktlarida tashqi qismiga maxsus rangli grafik chizmalar chizilgan transport vositalari haydovchilari va yo`lovchilari.

1. Mexanik transport vositasining haydovchisi quyidagi hujjatlarni yonida olib yurishi va IIO xodimlari talab qilganda ularga tekshirish uchun berishi shart: tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini, uning talonini (eski namunadagi haydovchilik guvohnomasi bo`lsa),

haydovchilik guvohnomasi belgilangan tartibda olib qo'yilgan hollarda vaqtincha ruxsatnomani;

2. vaqtincha ruxsatnoma bilan transport vositasini boshqarishda haydovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni;

3. transport vositasini (mopeddan tashqari), mavjud bo'lganda tirkamani ro'yxatdan o'tkazish haqidagi guvohnomani;

4. transport vositasining egasi bo'lmagan hollarda esa, umumiy egalik huquqini yoki tasarruf etish huquqini beruvchi, egalik qilishga va foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi hujjatni, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari (ota-ona, er (xotin), bolalar, aka-ukalar, opa-singillar) bundan mustasno;

5. transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisini (elektron ko'rinishda ham bo'lishi mumkin).

6. «Nogironligi bo'lgan shaxs» taniqli belgisi o'rnatilgan transport vositasini birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxs boshqarayotganda nogironligini tasdiqlovchi hujjatni;

7. qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda litsenziya guvohnomasini, yuridik shaxs tomonidan berilgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomani yoki yo'l varaqasini, tashilayotgan yuk hujjatlarini;

8. yuridik shaxslar transport vositalari haydovchilarining, shu jumladan yo'lovchi yoki yuk tashish faoliyatini amalga oshiruvchi haydovchilarning malaka oshirishdan o'tganligi to'g'risidagi sertifikati.

Transport vositasining haydovchisi quyidagilarga majburdir:

1. transport vositasini spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holatida boshqarish;

2. har qanday mastlik holatida, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holatida bo'lgan, shuningdek, tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi bo'lmagan, yo'l varaqasida yoki transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ism-familiyasi ko'rsatilmagan (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha shartnoma

ushbu transport vositasidan cheklanmagan shaxslarning foydalanilishini hisobga olgan holda tuzilgan hollardan tashqari) shaxslarga transport vositasini boshqarish uchun topshirish;

3. tormoz tizimi, rulʼ boshqaruvi ishlamayotgan, ulagich moslamasi (avtopoezd tarkibida) nosoz boʻlgan, sutkaning qorongʻi vaqtida yoki koʻrinish cheklangan vaziyatlarda yonmaydigan fara chiroqlari va orqa gabarit fara chiroqlari, yomgʻir yoki qor yogʻayotgan vaqtda oyna tozalagich ishlamaydigan transport vositasini boshqarish;

4. tegishli ruxsatsiz transport vositalariga maxsus texnik jihoz (ratsiya, sirena va shu kabilar)lar oʻrnatish;

5. transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi, shu jumladan piyodalar jamlanmalari harakatiga xalaqit berish va ular orasiga kirish;

6. transport vositasini boshqarish paytida telefondan (telefondan quloqchinlar orqali va qoʻllarni ishlatmasdan turib soʻzlashuvlar olib borish imkoniyatini beradigan boshqa uskunalar orqali foydalanish bundan mustasno), transport vositasi salonining old qismiga oʻrnatilgan tele, videomonitoridan tele, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish;

7. aholi punktlarida transport vositalarining magnitofon va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalarni hamda dvigatelʼ shovqinini belgilangan meʼyordan baland ovozda qilib foydalanish.

8. Harakatlanish vaqtida ushbu Qoidalarga 3-ilovada koʻrsatilgan transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar yuzaga kelganda, haydovchi ularni bartaraf etishi, agar buning iloji boʻlmasa, zarur boʻlgan ehtiyot choralarini koʻrgan holda taʼmirlash yoki toʻxtab turish joyiga evakuator yoki shatakka olish orqali transport vositasini olib borish choralarini koʻrishi mumkin.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak” Toshkent – “Oʻzbekiston”-2017.
2. K.Madumarov, A.Norqulov Texnikaviy chizmachilik Niso poligraf 2017 y.
3. E.Ruziyev va boshqalar Chizmachilik (topshiriqlar toʻplami) Ilm Ziyo 2015 y.
4. Y.Ibragimov Texnikaviy chizmachilik va elektron sxemalarni oʻqish Ilm Ziyo 2015 y.
5. A.Umronxoʻjayev, Sh.Jumanov “Mashinasozlik va qurilish chizmachiligi” 2005y

6. YE.I.Ro‘ziyev, A.O.Ashirboyev “Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi” 2010 y.

7. J.Y.Yodgorov, A.X.Narzullayev “Mashinasozlik chizmachiligi” 2009 y.

8. A.Ashirboyev-“Chizmachilik” Yangi nashr 2008 y.

#### Internet manbalari

1. <https://kitobhon.com/oz/kitob/mehnat-muhofazasi-va-tehnika-xavfsizligi>

2. <https://uz.denemetr.com/docs/134/indeh-234700.html> ]

3. [https://cyberleninka.ru/article/n/avtotransport-korxonalarida-tehnik-xizmat-korsatish-](https://cyberleninka.ru/article/n/avtotransport-korxonalarida-tehnik-xizmat-korsatish-va-ta-mirlash-ishchilarini-kompetensiyaviy-yondoshuv-asosida-tayyorlash)

[va-ta-mirlash-ishchilarini-kompetensiyaviy-yondoshuv-asosida-tayyorlash](https://cyberleninka.ru/article/n/avtotransport-korxonalarida-tehnik-xizmat-korsatish-va-ta-mirlash-ishchilarini-kompetensiyaviy-yondoshuv-asosida-tayyorlash)

4. [https://fvv.uz/uz/handbooq/behave\\_street\\_roud](https://fvv.uz/uz/handbooq/behave_street_roud)

5. [https://intrucks.com/uz/chemicals/engine-maintenance-diagnosis-and-maintenance-of-](https://intrucks.com/uz/chemicals/engine-maintenance-diagnosis-and-maintenance-of-the-engine-file-abstract-yakovlev/)

[the-engine-file-abstract-yakovlev/](https://intrucks.com/uz/chemicals/engine-maintenance-diagnosis-and-maintenance-of-the-engine-file-abstract-yakovlev/)

6. [https://amastercar.ru/articles/auto\\_repair\\_device.shtml](https://amastercar.ru/articles/auto_repair_device.shtml)

7. <https://pro-sensys.com/info/articles/obzornye-stati/ustroystvo-konstruktsiya-avtomobilya/>